

Date: 7th July-2026

NEMIS TILSHUNOSLIGIDA O‘ZLASHMA VA CHET SO‘ZLARNING
LINGVISTIK XUSUSIYATI

Umarova Zamira Qahramon qizi

O‘ZMU o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada nemis tilshunosligi misolida til boyishining asosiy manbasi — o‘zlashma va chet so‘zlar haqida so‘z yuritiladi. Xorijiy so‘zlarning qabul qiluvchi til tizimiga (fonetik, grammatik, semantik) moslashish mezonlari o‘rganilib, taniqli nemis va rus tilshunolarining bu boradagi ilmiy qarashlari qiyosiy yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Lug‘at tarkibi, O‘zlashma so‘z, Chet til so‘zlari, Kalkalash, Internatsionalizmlar, Lingvistik assimilyatsiya, Nemis tilshunosligi, Semantik moslashuv

Abstract: The article analyzes the main source of vocabulary enrichment — borrowed and foreign words (Lehnwörter and Fremdwörter) in German linguistics. It explores the criteria for the phonetic, grammatical, and semantic adaptation of foreign words into the recipient language, providing a comparative review of scientific views held by prominent linguists.

Keywords: vocabulary, borrowed words, foreign words, calque, internationalisms, linguistic assimilation, German linguistics, semantic adaptation.

Bugungi kunda bizning kundalik hayotimiz va insonlar bilan muloqot jarayonimizda turli texnologik atamalar hamda zamonaviy so‘zlardan keng foydalaniladi. Albatta, bu atamalar har xil nomlanadi. Shunday vaziyatlarda esa o‘zlashma so‘zlardan foydalanish zarurati tug‘iladi. Ma’lumki, har qanday tilning lug‘at boyligi turli yo‘llar orqali ortib boradi. Shunday yo‘llardan biri - bu boshqa tillardan yangi so‘zlarning o‘zlashtirilishidir.

Bugungi davrda hech bir til boshqa tillar bilan aloqa qilmasdan, faqat ichki imkoniyatlar asosida rivojlanmagan. Har bir tilda boshqa xalqlar bilan bo‘ladigan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar, ilm-fan va texnika taraqqiyoti natijasida boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar uchraydi.

Har bir tilning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li bor. Shu rivojlanish davomida boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarning kirib kelishi ko‘p uchraydi. Ana shunday jarayonlar tilning lug‘aviy tarkibining boyishini ko‘rsatadi va turli tillarga yangi so‘zlar kirib borishini tasdiqlaydi.

Nemis tilshunosligida tilning lug‘at tarkibining boyib borishining bir necha yo‘llari mavjud.

1. Yangi so‘zlar yasalishi orqali (So‘z yasalishi)
2. Boshqa tillardan so‘z kirib kelishi orqali (o‘zlashmalar)
3. Mavjud so‘zlarning ma‘nosi o‘zgarishi orqali (ma‘no ko‘chishi)
4. Frazologik birikmalarning yasalishi orqali (frazologizmlar)

Shunga ko‘ra nemis tilida o‘zlashma so‘zlar ikki guruhga bo‘linadi. Bular nemis tiliga to‘liq o‘zlashib ketgan so‘zlar (Lehnwörter) va chet til (Fremdwörter) so‘zlaridir.



Date: 7th July-2026

To'liq o'zlashib ketgan so'zlar asosan qadimgi, o'rta hamda yangi nemis adabiy tili davrlarida kirib kelgan hamda to'liq nemischalashib ketgan so'zlardir.

Bularni hozirda hech kim chet tilidan kirib kelgan so'zlar sifatida tushunmaydi. Masalan: *Fenster, Mauer, Mönch, tanzen, schreiben* va boshqalar.

Chet tilidan o'zlashgan so'zlar (Fremdwörter) nemis tilida keng qo'llaniladigan so'zlar bo'lib, ularning o'zlashgan so'zlar ekanligi ko'rinib tursada, xorijiy so'z sifatida ko'rilmaydi hamda nemischa ekvivalenti bilan almashtirib qo'llanilmaydi. Masalan: *Politik, Sport, interessant, Interview, demonstrieren* va boshqalar.¹¹

Nemis tiliga asosan quyidagi yo'llar bilan so'zlar o'zlashtiriladi:

1. Chet tilidagi so'zni ham shakli, ham ma'nosi bilan birga to'liq o'zlashtirish, ya'ni oddiy usul (einfache Entlehnung). Masalan: *okay, hi, Sputnik, Sozialismus*.

2. So'zlarni kalkalash orqali tarjima qilib o'zlashtirish (Lehnübersetzung).

Masalan: ingl. *Football-Fussball, useless-nutzlos*.

3. O'zlashtirilgan xalqaro so'zlar (Internationalismen). Bular turli tillarda bir xil shakl va ma'noda ishlatiladigan so'zlar bo'lib, ular asosan turli soha terminlaridan iboratdir. Masalan: Nemischa - *der Student*, Inglizcha - *Student*, Fransuzcha - *Le tudiant*, Ruscha - *Студент*, O'zbekcha - *Student*.

Xalqaro so'zlar qatoriga xalqlarning o'ziga xos madaniyati xususiyatlarini ifodalaydigan hamda ko'p tillarga o'zlashtirilgan so'zlar ham kiradi. Masalan: *Kurash, Halol, Schaschlyuk*, va boshqa.

Ma'lumki, chet tilidan kirib kelgan har bir yangi so'z tabiiy ravishda o'sha tilning fonetik, orfografik, grammatik elagidan o'tadi. Bunda so'z o'qilishi, yozilishi va tuzilishi bo'yicha o'zlashayotgan tilning muayyan qonuniyatlari ta'siri ostida ayrim o'zgarishlarni boshidan kechiradi, ya'ni chet so'zlar qabul qiluvchi til tizmiga ma'lum darajada bo'ysunadi. Ular boshqacha o'qilishi, boshqacha yozilishi, ayrim harf va tovushlarning tushirib qoldirish yoki ortiqcha qo'shib aytilishi, hatto shakli va qiyofasini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin. Tilshunoslikda bu xususiyatlar 7 xilga bo'lib o'rganiladi:

1. O'zlashma so'z uni qabul qilgan tilning praktik yozuv xususiyatlariga moslashgan bo'lishi. 2. Chet so'z o'zlashtiruvchi til grammatik sinflari, kategoriyalariga mos kelishi. 3. So'z uni qabul qilgan tilda qayta fonetik shakllanishi. 4. Chet so'z uni qabul qiluvchi tilga grammatik singishi. 5. Chet so'z uni qabul qiluvchi til so'z yasash sistemasida aktiv ishtirok etishi. 6. Chet so'z uni qabul qilgan tilga semantik jihatdan singishi: a) o'zlashma so'z ma'nosi aniq bo'lishi;

b) o'zlashma so'z ma'nosi uni qabul qilgan tilda differentsiatsiya qilingan bo'lishi.

7. Chet so'z uni qabul qilgan tilda uzluksiz ishlatilishi kerak.

Bu yuqorida nomlangan xususiyatlar borasida tilshunoslar yakdil, ya'ni chet so'z o'zlashayotgan tilga qabul qilinib unda mustahkam o'rinishib, singishib ketishi uchun quyidagi talablar bo'yicha ular deyarli bir xil fikr bildiradilar. Ammo chet so'zlarning ular o'zlashgan tillarda nomlanishi, differentsiatsiya qilinishi, terminologik birliklarning qo'llanilishi nazarda tutilib, bu obyektiv va zaruriy faktor o'rganiladigan bo'linsa, shu

¹¹ Damaris N. Historische Sprachwissenschaft des Deutschen. Tübingen, Akademie Verlag, 2017, S.15

Date: 7th July-2026

paytgacha qilingan ishlarda chet soʻzlar turlicha terminlar, differentsiatsiyalar ostida tahlil qilinganini koʻramiz.

Chet soʻzmi yoki oʻzlashma? Bir tildan ikkinchisiga kirib kelib, chet soʻzning qay darajada qabul qiluvchi tilga oʻzlashib ketganligini aniqlash, ayniqsa ularni chet soʻz va oʻzlashmalarga ajratishning qiyin ekanligi ilmiy adabiyotlarda qayta-qayta taʼkidlab kelinmoqda. Bu masala bilan birinchilar qatorida shugʻullangan nemis tilshunoslari oʻzlashgan soʻzlarni “aniq qilib chet soʻz yoki oʻzlashma ekanligini farqlab berish baʼzi bir sabablarga koʻra qiyin ekanligi”, “chet soʻzlar masalasi choʻgʻi temir ekanligi, kimki unga qoʻl urmoqchi boʻlsa osongina barmoqlarini kuydirib olishi” mumkinligini uqdirishgan edi. Taʼkidlangan qiyinchiliklarga, toʻsiqlar va “ogohlantirishlarga” qaramay, tilshunoslikda oʻzlashgan soʻzlar tasnifiga bagʻishlangan turlicha izlanishlar va ularning klassifikatsiyasi boʻyicha katta ishlar qilindi, ilmiy fikr mulohazalar bildirildi.

Oʻzlashgan soʻzlar olimlar tomonidan, avvalo, ikki koʻrinishda, yani chet soʻz va oʻzlashmalarga boʻlinib tahlil qilindi. Agar oʻzlashgan soʻz oʻzi qabul qilingan tilga singishib, fonetik, orfografik, grammatik jihatdan moslashib ketsa, uni oʻzlashma, begonaligicha qolaversa, uni chet soʻz deb nomlashning oʻzi kifoya boʻlgan bu jarayon olimlar tomonidan turlicha izohlanildi.

Nemis olimi E.Vassersier XV asrgacha oʻzlashgan soʻzlarni “oʻzlashma”, XVI asrdan keyin kirib kelgan soʻzlarni “chet soʻzlar” deb qabul qilish kerak, - deydi.

Rus tilshunosi A.P.Mayorov ham bu fikrni quvvatlaydi. U chet soʻzlarning nemis tilidagi leksiksemantik assimilyatsiyasi masalalarini oʻrganayotib: *”Chet soʻzlar ostida nemis tiliga taxminan XV asrdan keyin kirib kelgan va oʻzlarining chet tillaridan kirib kelganligini (oʻqilishi, yozilishi va urgʻusi bilan) bildirib turuvchi soʻzlar tushuniladi”*, - deydi. Taʼriflardan koʻrinib turibdiki, E.Vassersier va A.Mayorovlar chet soʻzlar differentsiatsiya qilishda mezon qilib vaqtni olishgan va bir asrni belgilashgan. Fikrimcha, bu kriteriya ishonarli emas, buning ustiga koʻp chalkashliklar bilan bogʻliq. Birinchi navbatda, bu masalada kelishib, yani bir asrdan u yogʻi oʻzlashma va bu yogʻi chet soʻz boʻlsin deb klassifikatsiya qilib boʻlmaydi. Zero, bu tillarning rivojlanishi va oʻzaro taʼsiri va turli qonuniyatlarini chuqurroq oʻrganishdan va tadqiq qilishdan qochish demakdir. Tabiiyki, biror tilga qarashli boʻlgan soʻzning ikkinchi bir tilga oʻtib, unga moslashib ketishi uchun vaqt kerak.

Ammo biror asrni chegara qilib belgilash, til lugʻat tarkibidagi oʻzgarishlarni, soʻz oʻzlashtirishning oʻziga yarasha xususiyatlarini daraja-badaraja, tadrijiy oʻrganishdan koʻz yumish yoki chetlab oʻtishni anglatadi.

Chet soʻzlarning oʻzlashuvi borasida XIX asr oxirlarida nemis olimi F.Miklozix tomonidan ikkinchi bir fikr oʻrtaga tashlangan. U shunday fikr bildiradi: “Til tarixida ikki davr farqlanishi kerak. Birinchi davrda boshqa til egalari bilan munosabat kam, soʻz oʻzlashtirish oz, til esa oʻzining ichki qonuniyatlariga zid boʻlgan har bir jarayonga nisbatan oʻta sezgir boʻlgan, qabul qilingan chetki materiallarni oʻz qatlamiga moslashtirgan. Ikkinchi davrda esa, chet soʻzlar koʻplab, yalpi ravishda kirib kela boshlagan, til begona taʼsirga oʻz sezgilarini yoʻqotgan, natijada qabul qilingan yangi material oʻz begona shaklini saqlab qola boshlagan”.



Date: 7th July-2026



F.Miklozix fikrida ilmiylik va haqqoniylik mavjud. Chunki soʻz oʻzlashuvi oʻzlashgan soʻzlar soni va hajmiga albatta va bevosita bogʻliq boʻladi. Lekin dunyo tillari rivojlanishining xarakterli xususiyatlaridan biri borki, u ham boʻlsa tillarning tashqi taʼsiriga nisbatan, ayniqsa, undan qabul qilinadigan soʻzlarni, iloji boricha, saylab, ajratib hamda tanlab olishga intiladi. Til xalqning hayotiy zarur, moddiy va maʼnaviy ehtiyojlarini ifodalovchi soʻzlarni tez qabul qiladi, oʻzlashtiradi va oʻziga moslashtiradi.

Chet soʻz va oʻzlashmalarni aniq farqlashga harakat qilgan olimlardan yana biri V.Shmidt. U qiziq, ammo qisqa va aniq fikr aytgan: *“Oʻzlashgan soʻzlar deb, tilga moslashib olgan, kelib chiqishini faqat etimologik tahlil orqaligina aniqlansa boʻladigan soʻzlarga aytiladi. Ular tilga tashqi koʻrinish, urgʻusi va fleksiyasi boʻyicha moslashib olgan boʻladilar. Oʻzlarining begona xususiyatini saqlab qolgan soʻzlar esa chet soʻzlar deb yuritiladi”*. Bu fikr yaqin-yaqinlargacha tilshunoslikda umumiy va keng tarqalgan fikrlardan biri hisoblanar edi. Keyingi yillarda chet soʻzlar har tomonlama (fonetik, morfologik, semantik jihatlaridan) oʻrganila boshlandi, tadqiq qilindi va yana ayrim qoʻshimcha mulohazalar aytiladi.

Bu oʻrinda shuni ayta olamanki, chet soʻzlar klassifikatsiya qilinganda, ularning qabul qiluvchi tilga qay darajada singishib ketganligi, yaʼni ularning talaffuz qilinishi, yozilishi, yangi qoʻshimchalar olishi va soʻz yasay olish funksiyasi, maʼno oʻzgarishlari (koʻchma maʼnolar kasb etishi) kabi xususiyatlari qay darajada oʻzgarib, oʻzlashib ketganligini farqlab tahlil qilish va oʻrganish kerak.

Bular uchun asosiy mezon - chet soʻzlarning oʻzlashgan tillardagi oʻrni, til egalari uchun hayotiy muhim narsa va hodisalarni ifodalay olish kuchi, ularning qiziqish va ehtiyojlarini qoplay olish darajasini koʻrsatib berishi lozim. Shundagina chet tillaridan oʻzlashgan soʻzlar koʻp qoʻllaniladi, tilning struktural-semantik qoidalariga tez moslashadi, qoʻshilib singishib ketadi va yana ravnaq topadi.

Nemis tiliga turli tarixiy davrlarda turli tillardan soʻzlar oʻzlashgan. Ushbu jarayon sotsiologik, siyosiy va madaniy omillar bilan chambarchas bogʻliq. Quyida ushbu mavzuni ilmiy nuqtayi nazardan batafsil qilingan tahlillarni koʻrib chiqamiz.

Shu oʻrinda shuni taʼkidlashim lozimki, nemis tilidagi oʻzlashmalarni lingvistik va psixolingvistik nuqtayi nazardan chuqur tahlil qilish ularning rivojlanish dinamikasini tushunishga hamda xalqaro lingvistik integratsiyaning qoidalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu boisdan, oʻzlashma soʻzlarning nemis tilidagi oʻrnini yanada kengroq oʻrganish, ularning taʼsirini aniqlash va til tizimidagi barqarorligini baholash muhim ilmiy masalalardan biri boʻlib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Iskos A., Lenkova A. Deutsche Lexikologie. Ленинград: Невский, 1970.
2. Munske H., Kirkness A. Das griechische und lateinische Erbe in den europäischen Sprachen. Tübingen: Niemeyer, 1996.
3. Polenz P. Geschichte der deutschen Sprache. Berlin: De Gruyter, 2009.
4. Schippan Thea. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. Tübingen: Max Niemeyer, 1992.

Date: 7th July-2026

5. Werner B., Wolf Norbert Richard. Geschichte der deutschen Sprache. Längsschnitte – Zeitstufen – Linguistische Studien. Berlin: Erich Schmidt, 2009.



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

